

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZRLIGI
CENTRAL ASIAN MEDICAL UNIVERSITY XALQARO TIBBIYOT
UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”

Central Asian Medical University xalqaro
tibbiyot universiteti rektori



N.Mamasadikov

2022 yil

**Central Asian Medical University xalqaro tibbiyot universitetida
iqtidorli talabalar uchun “REKTOR STIPENDIYASI”ni tayinlash tartibi
to'g'risidagi**

NIZOM

Farg‘ona-2022

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktabrdagi "O'zbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida"gi 226-son va Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-yanvardagi 59-son qarorlariga muvofiq qobiliyatli yoshlarni rag'batlantirish tizimini yanada takomillashtirish, ularni faol yaratuvchilik faoliyatiga keng jalb etish, iqtidorli talabalarni moddiy qo'llab-quvvatlash hamda munosib taqdirlash maqsadida Central Asian Medical University xalqaro tibbiyot universitetida "Rektor stipendiyasi"ni tayinlash tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

Iqtidorli talaba - O'quv semestri yakuni bo'yicha fanlarni o'zlashtirayotgan, alohida qobiliyat va iqtidor egasi bo'lgan, jamoat ishlarida faol hamda intellektual qobiliyatli talaba.

Rektor stipendiyasi – Stipendiya Central Asian Medical University xalqaro tibbiyot universitetining barcha yo'nalish talabalari uchun ta'sis etilib, ushbu nizom bilan belgilangan tartibga muvofiq tanlovdan o'tgan talabalarga belgilanadi. Tanlovda “Eng a'lochi talaba”, “Innovator talaba”, “Eng yaxshi g'oya muallifi”, “Eng kuchli sportchi”, “Eng ijodkor talaba”, “Eng yuqori ilmiy natijalarga erishgan talaba”, “Poliglott talaba”, “Eng faol targibotchi talaba” nominatsiyalari joriy etilgan.

Universitet rektorining qobiliyatli yoshlarni rag'batlantirish, ularni faol yaratuvchilik faoliyatiga keng jalb etish, iqtidorli talabalarni moddiy qo'llab-quvvatlash hamda munosib taqdirlash maqsadida ularga kontrakt summasining 10% dan 50% gacha miqdorida har semestr natijalariga ko'ra semestr yakunida stipendiya tayinlanadi.

Talabalarni rag'batlantirish jamg'armasi - universitetda o'quv semestri yakuni bo'yicha fanlarni o'zlashtirayotgan, alohida qobiliyat va iqtidor egasi bo'lgan, jamoat ishlarida faol, shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarni moddiy qo'llab-quvvatlashni tashkil etish jamg'armasi.

2-bob. Iqtidorli talabalarni moddiy qo'llab-quvvatlash va stipendiyalar tayinlash

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-yanvardagi "Talabalarni rag'batlantirish jamg'armasini shakllantirish va jamg'arma mablag'lari hisobiga talabalarga moddiy rag'batlantirishlarni tayinlash va to'lash tartibi" to'g'risidagi 59-son qaroriga asosan Central Asian Medical University xalqaro tibbiyot

universiteti rahbariyati o'quv semestri yakuni bo'yicha fanlarni o'zlashtirayotgan, alohida qobiliyat va iqtidor egasi bo'lgan, jamoat ishlarida faol, shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj to'lov-kontrakt asosida ta'lim olayotgan barcha talabalarga semestr natijalariga ko'ra har semestr yakunida kontrakt summasining 10% dan 50% gacha chegirma berish bilan rag'batlantiradi.

2. Central Asian Medical University xalqaro tibbiyot universitetining barcha yo'nalishlarida tahsil oluvchi iqtidorli talabalarni (bundan buyon iqtidorli talabalar deb yuritiladi) aniqlash va ularni moddiy qo'llab-quvvatlashni tashkil etish Universitet Kengashi qarori asosida rektor buyrug'i bilan tuzilgan maxsus Ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi;

3. Ishchi guruh universitet rektori raisligida universitetning prorektorlari, tegishli bo'lim boshliqlari, tajribali professor-o'qituvchilari, fakultet dekani, kasaba uyushmasi, yoshlar ittifoqi va boshqa jamoat tashkilotlari vakillaridan iborat holda tuziladi;

Universitetning barcha fanlarini chuqur o'zlashtirgan, yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti faoliyatida faol qatnashib kelayotgan, xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlari, tanlov hamda fan olimpiadalari diplom va sertifikatlariga ega bo'lgan, sport va ma'naviy tadbirlarda faol qatnashib kelayotgan, International English Language Testing System (IELTS academic), Test of English as a Foreign Language (TOEFL), CEFR, Goethe-Zertifikat, TestDaf, Diplôme d'Etudes en Langue Française (DELF) til sertifikatlariga ega bo'lgan, Start-up loyihalari g'olibliklarini qo'lga kiritgan iqtidorli talabalardan "Rektor stipendiyasi"ga nomzodlarni yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i tavsiyasiga asoslanib, saralash tanlov shaklida amalga oshiriladi;

4. Stipendiya oluvchi iqtidorli talabalar soni ishchi guruhi tomonidan belgilanadi;

5. Ishchi guruh tomonidan "Rektor stipendiyasi"ga tanlovda ishtirok etish uchun dekanatlardan, kafedralar to'garak rahbarlaridan va yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilot yetakchisidan tavsiyalar o'quv yilida 2 marotaba semestr yakuni bo'yicha iyul (pandemiya va boshqa sabablarga ko'ra sentabr oyida) va fevral oylarida (pandemiya va boshqa sabablarga ko'ra mart oyida) I hafta davomida qabul qilinadi.

3-bob. "Rektor stipendiyasi" nomzodlarini tanlovda ishtirok etishi va Kengashda tasdiqlash tartibi

6. Tanlovda ishtirok etish uchun Ishchi guruhga quyidagi xujjatlar taqdim etiladi:

- ✓ Ilmiy ishlardagi yutuqlari (ilmiy kotib tasdig'idan o'tgan chop etilgan maqolalar, tezislar, sertifikat, diplomlardan nusxa)
- ✓ Reyting daftarchasi nusxasi (dekanat tomonidan tasdiqlangan holda);
- ✓ Dekanat tavsiyanomasi;
- ✓ Kafedra to'garak rahbari tavsiyanomasi;
- ✓ Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilot yetakchisining tavsiyanomasi ;
- ✓ Erishgan yutuqlari ro'yxati (tasdiqlovchi asl hujjatlari);

- ✓ Start-up loyihalari g'olibligi
- ✓ Xorijiy til sertifikati

7. Nomzodlarni saralash jarayonida iqtidorli talabalarning o'tgan o'quv yildagi ilmiy va o'qish faoliyati hamda Yoshlar ittifoqining boshlang'ich tashkilotidagi faoliyati va o'rni, Xalqaro va Respublika anjumanlarida, tanlovlar hamda olimpiadalarda diplom va sertifikatlarga ega bo'lganligi, sport va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtiroki, Start-up loyihalarda faol qatnashib kelayotganligi, xalqaro til bilish darajasiga egaligi to'g'risidagi sertifikatlarga ega bo'lganligiga qarab baholanadi va saralab olinadi.

4- bob. Tanlovga tayyorlangan xujjatlarni taqdim etish

8. Tanlovga taqdim etilgan xujjatlar tanlov muddati tugagach bir hafta muddatda Tanlov komissiyasiga taqdim etiladi.

9. Tanlov komissiyasining qarori bilan xujjatlarni ko'rib chiqish uchun ekspertlar belgilanadi.

Ekspertlar Tanlov komissiyasi a'zolari va universitet xodimlari iborat holda tayinlanishi mumkin.

10. Tanlovda qatnashish uchun taqdim etilgan xujjatlar ikki hafta muddatda ekspert tomonidan o'rganiladi va o'rganish natijalari bo'yicha ekspertlarning xulosalari tanlov komissiyasiga taqdim etiladi.

11. Ekspert xulosasida quyidagilar bayon etilishi zarur:

Tanlovga taqdim etilgan xujjatlar Nizom talablariga mosligi va talabalarning iqtidori va layoqatini to'g'ri baholab berishlari zarur;

taqdim etilgan xujjatlar orasida talabalarning chet tillarni bilish darajalari bo'yicha sertifikatlari, boshqa turdagi tashakkurnoma va sertifikatlari ekspertlar tomonidan alohida ko'rsatib o'tilishi zarur.

5- bob. Yakunlovchi qoidalar

12. Iqtidorli talabalami kundalik darslarni o'zlashtirmaganlik, o'quv intizomini va odob-ahloqni buzganlik uchun o'quv yili mobaynida mazkur stipendiyalardan mahrum qilish dekanat taqdimnomasiga binoan universitet buyrug'i asosida amalga oshirilishi mumkin.

13. Iqtidorli talabalarning mazkur stipendiyalarni tayinlash bo'yicha ariza va shikoyatlari qonun xujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.